



IT PARK VA STARTAPLARDA VAQTNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Ilmiy rahbar: Ibragimov G'anijon G'ayratovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Qo'shma
ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi
boshlig'i - Innovatsion menejment kafedrası dotsenti Phd,
g.ibragimov@tsue.uz

Mirzayev Mirzabek Shoyimjonovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Menejment fakulteti 3-kurs talabasi,
mirzabekmirzayev05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada IT-parklar va startaplarda vaqtni boshqarish strategiyalari ko'rib chiqiladi, xalqaro tajriba O'zbekistondagi amaliyot bilan solishtiriladi. U samaradorlikni oshirishga va belgilangan muddatlarga rioya qilishga yordam beradigan Agile va Scrum kabi global usullarni ta'kidlaydi. Tadqiqot IT-Park tarkibidagi o'zbek startaplari ushbu yondashuvlarni qanday amalga oshirayotgani va ular qanday muammolarga duch kelayotgani o'rganiladi. Global va mahalliy amaliyot o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek startap ekotizimida vaqtni boshqarish va unumdorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Vaqtni boshqarish, IT-parklar, Startaplar, Agile metodologiyasi, Scrum, Loyihalarni boshqarish, mahsuldorlik, Xalqaro tajriba, O'zbekiston startap ekotizimlari, Samaradorlik strategiyalari.

Kirish:

Zamonaviy iqtisodiyot va texnologiyalar tez rivojlanayotgan davrda startaplar va IT Parklar faoliyatining samaradorligi bevosita vaqtni boshqarish



qobiliyatiga bog'liq. Startaplarning muvaffaqiyati ko'pincha yangi mahsulotni yoki xizmatni bozorda iloji boricha tezroq va sifatli taqdim eta olishiga bog'liq bo'ladi. Shu bois, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, vazifalarni oqilona taqsimlash va loyihalarni belgilangan muddatlarda bajarish eng muhim strategik omillardan biriga aylangan. Global texnologik muhitda raqobat juda kuchli va doimiy o'zgarishlarga to'la bo'lib, bu startap va IT sohasidagi kompaniyalarni moslashuvchanlik va tezkorlikni oshirishga majbur qiladi. Vaqtni boshqarish bu jarayonda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zarur bo'lgan asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois, IT Parklar va startaplarda zamonaviy va samarali vaqtni boshqarish strategiyalarini joriy qilish global tajriba bilan uyg'unlashtirilgan holda katta ahamiyat kasb etadi.

Vaqtni boshqarish — bu shaxs yoki jamoaning vaqt resurslarini maqsadga muvofiq, samarali va oqilona tashkil etish jarayonidir. Ayniqsa, startaplar va IT Parklar kabi tezkor o'zgaruvchan muhitda, vaqtni to'g'ri boshqarish muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi. Vaqtni boshqarish orqali ish jarayoni optimallashtiriladi, vazifalar aniq taqsimlanadi va muhim loyihalar belgilangan muddatda bajariladi. Startap va IT sohasida vaqtni boshqarishning o'ziga xosligi shundaki, bu sohalarda ish sharoitlari juda dinamik, ko'plab noaniqliklar va o'zgaruvchan talablar mavjud. Shu bois, an'anaviy vaqtni boshqarish usullari o'rniga moslashuvchan va iterativ yondashuvlar — Agile, Scrum va Kanban kabi metodologiyalar keng qo'llaniladi. Bu strategiyalar loyihani kichik bo'laklarga bo'lib, tez-tez natijalarni baholab, jamoaning samarali va tezkor harakatlanishini ta'minlaydi.

1-jadval.

Agile	Tezkor va moslashuvchan boshqaruvni ta'minlaydi, mijoz talablariga tez javob qaytarishni osonlashtiradi
Scrum	Bu Agile doirasidagi ramka bo'lib, loyihani sprintlarga bo'lib, muntazam



	yig'ilishlar orqali jamoaning ish jarayonini nazorat qiladi.
Kanban	Bu tizim esa ish oqimini vizual tarzda boshqarish va ish jarayonidagi to'siqlarni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu strategiyalar jamoaning vaqtni boshqarish ko'nikmalarini yaxshilash, ish unumdorligini oshirish va sifatli mahsulot yoki xizmat yaratishga yordam beradi.

O'zbekiston IT sektorining hozirgi holati

So'nggi yillarda O'zbekiston IT sektori jadal rivojlanmoqda. Hukumat tomonidan qabul qilingan strategiyalar, shu jumladan "Raqamli O'zbekiston" dasturi¹, IT Parklar tashkil etilishi va startaplarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ko'plab tashabbuslar ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bugungi kunda mamlakatda yuzlab IT kompaniyalar va startaplar faoliyat yuritib, yangi innovatsion mahsulotlar yaratmoqda. Shunga qaramay, sohaning rivojishida vaqtni boshqarish sohasida hali bir qator muammolar mavjud.

IT Parklarning vazifalari va roli

O'zbekiston IT Parklari startaplar uchun qulay infratuzilma yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va yuqori texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. IT Parklar shuningdek, yosh tadbirkorlar va dasturchilarga loyiha boshqaruvi, vaqtni boshqarish kabi muhim ko'nikmalarni o'rgatish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, IT Parklar global standartlarga mos ish yuritishni ta'minlab, mamlakatda raqobatbardosh IT mahsulotlari paydo bo'lishiga yordam beradi.

Mahalliy startaplarda vaqtni boshqarish amaliyoti

O'zbekiston startaplari ko'pincha xalqaro tajribalardan ilhomlanib, Agile, Scrum va Kanban kabi metodologiyalarni joriy qilishga harakat qilmoqda. Ammo bu

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarni tashkil qiladi.



jarayon ko'plab startaplarda to'liq va tizimli amalga oshirilmayapti. Kichik va o'rta startaplarda ko'proq an'anaviy boshqaruv usullari qo'llaniladi yoki vaqtni boshqarish bo'yicha nazorat yetarli darajada emas. Shu bois, loyihalar kechikishi, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi va samaradorlikning pastligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Agile, Scrum, Kanban metodlarini joriy qilishdagi muammolar

O'zbekiston startaplari uchun Agile va uning doirasidagi metodlarni to'liq joriy qilish bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Birinchi navbatda, yetarli malakaga ega mutaxassislar va tajribali mentorlarning kamligi asosiy muammolardan biridir. Ikkinchidan, ish madaniyati va an'anaviy yondashuvlarning kuchli ta'siri jamoaning moslashuvchanligini cheklaydi. Shu bilan birga, loyihalarni boshqarish uchun zarur bo'lgan zamonaviy vositalarni to'liq va samarali ishlatish bo'yicha ham qiyinchiliklar mavjud.

Vaqtni boshqarishdagi madaniy va texnologik to'siqlar

Vaqtni boshqarishdagi muammolarning yana bir sababi — ish madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlar. O'zbek ishchi muhitida "deadline"larga qat'iy rioya qilish va ishni o'z vaqtida yakunlash madaniyati hali to'liq shakllanmagan. Shuningdek, byurokratik to'siqlar, ko'p yig'ilishlar va ortiqcha ma'muriy yuklama ham vaqtni samarali boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik jihatdan esa, ayrim startaplarda loyiha boshqaruvi vositalaridan foydalanish bo'yicha yetarli malaka va resurslar yetishmaydi, bu esa ish jarayonining sekinlashishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Schwaber va Sutherland (2017) Scrum metodologiyasi haqida ta'rif berar ekanlar, ushbu usul IT sohasida jamoalarning ishini samarali boshqarish va vaqtni tejashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Ular Scrum'ning tizimli ravishda ishlab chiqarish jarayonini qisqa bosqichlarga bo'lib, tezkor muvofiqlashuv va natijaga erishish imkoniyatini beradigan yechim ekanini ko'rsatadilar[1].



Anderson (2010) esa Kanban tizimi orqali ish jarayonini vizuallashtirish va ish joyidagi to'siqlarni aniqlash imkoniyatini ta'kidlab, bu usul ish faoliyatini optimallashtirish va vaqtni samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi, degan fikrni bildirgan[2].

Rasulov (2021) o'z tadqiqotida O'zbekiston IT Parklari va startaplarida Agile usullarini joriy qilishdagi muammolarni o'rganib, mutaxassislar malakasining yetishmasligi va an'anaviy ish madaniyatining yangi usullarga moslashishidagi qiyinchiliklar muhim to'siqlar ekanini ko'rsatgan. Shu bilan birga, u mahalliy sharoitda zamonaviy vaqtni boshqarish usullarini takomillashtirish va o'quv dasturlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan[3].

Abdullaev va hamkasblari (2022) startaplarda vaqtni boshqarishning ijtimoiy va texnologik jihatdan muammolarini tahlil qilib, samarali boshqaruv uchun mahalliy mentalitet va ish uslublarini hisobga olgan holda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish kerakligini ta'kidlaganlar[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston IT Parklari va startaplarida vaqtni boshqarish strategiyalari va ularning samaradorligi turli usullar yordamida o'rganildi. Avvalo, tizimli tahlil orqali vaqtni boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – jamoa malakasi, texnologik vositalar, tashkiliy jarayonlar va boshqaruv tizimlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Empirik tahlil jarayonida IT Park va startaplarda amalga oshirilgan so'rovnomalar, intervyular va korxonalarning ichki ma'lumotlari asosida amaldagi holat baholandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston amaliyoti AQSh, Hindiston va Singapur kabi davlatlardagi xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda vaqtni boshqarish samaradorligiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, IT Parklar va startaplarda vaqtni boshqarish samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro



uyg'unligi tashkilotlarning umumiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Jamoaning malakasi, zamonaviy boshqaruv metodlari, texnologik infratuzilma va motivatsiya tizimi vaqtni samarali boshqarishning asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'ldi.

2-jadval.

IT Park va startaplarda vaqtni boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlili.

Omillar	Aniqlangan holatlar	Tahlil natijalari
Texnologik vositalar	50% tashkilotlarda zamonaviy vaqt boshqarish vositalari yetarli emas	Samarali vositalarning yetishmasligi vaqt yo'qotilishiga olib keladi
Jamoa malakasi	55% xodimlar Agile, Scrum metodologiyalarini yetarli darajada bilmaydi	Malaka yetishmovchiligi jarayonlarni sekinlashtiradi
Tashkiliy jarayonlar	45% startaplarda aniq belgilangan ish jarayonlari yo'q	Noaniq jarayonlar vaqtni noto'g'ri taqsimlashga olib keladi
Motivatsiya tizimi	40% tashkilotlarda vaqtni boshqarish bo'yicha rag'batlantirish tizimi mavjud emas	Rag'batlantirish tizimining yo'qligi samaradorlikni pasaytiradi

Tahlildan ko'rinib turibdiki, vaqtni boshqarishni yaxshilash uchun xodimlarni malakasini oshirish, zamonaviy boshqaruv vositalarini joriy qilish, aniq tashkiliy jarayonlarni yaratish va motivatsiya tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.



3-jadval.

Milliy va xalqaro amaliyotni qiyosiy tahlili.

Yo‘nalishlar	O‘zbekiston amaliyoti	Xalqaro amaliyot (AQSh, Hindiston, Singapur)
Vaqt boshqaruv vositalari	Qisman an’anaviy va cheklangan vositalar	Zamonaviy digital platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar
Jamoa malakasi	O‘rta darajadagi bilim va ko‘nikmalar	Yuqori malaka va doimiy o‘quv dasturlari
Tashkiliy jarayonlar	Noaniq, ko‘pincha improvizatsiya asosida	Standartlashtirilgan va optimallashtirilgan jarayonlar
Motivatsiya tizimi	Odatda qat’iy bo‘lib, vaqtni boshqarishga kam e’tibor	Moslashuvchan, KPI va samaradorlikka yo‘naltirilgan tizimlar

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy amaliyotda asosan an’anaviy boshqaruv usullari mavjud bo‘lsa, xalqaro tajriba digital vositalar va malaka oshirishga katta e’tibor qaratadi. Bu esa vaqtni boshqarish samaradorligini oshirishda muhim farq yaratadi.

Ikkinchi jadval asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi IT Park va startaplardagi vaqtni boshqarish amaliyoti xalqaro tajribadan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Aksariyat hollarda vaqt boshqaruvi vositalari (masalan, Trello, Jira) cheklangan darajada qo‘llaniladi, metodologiyalar esa (Agile, Scrum, Kanban) yuzaki joriy etilgan. Xalqaro tajribada esa vaqt aniq rejalashtiriladi, loyiha boshqaruvi zamonaviy raqamli vositalar orqali amalga oshiriladi. Ish jarayonlari qat’iy rejalashtirilgan, har bir bosqich monitoring qilinadi. Rag‘batlantirish tizimi ham farq qiladi: O‘zbekistonda ish haqi ko‘proq lavozim va



tajribaga bog‘liq bo‘lsa, xoriyda KPI² va OKR³ asosida baholash va bonuslash tizimi mavjud. Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribadagi strategiyalar — raqamlashtirish, metodologik yondashuv va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv — O‘zbekiston startaplari uchun samaradorlikni oshirishda muhim omillardir.

4-jadval.

Vaqtning boshqarishni yaxshilash bo‘yicha boshqaruv strategiyalari.

Strategiyalar	Amalga oshirish yo‘llari	Kutilayotgan natijalar	Strategiyalar
Zamonaviy boshqaruv vositalari	Digital platformalarni joriy qilish, avtomatlashtirish	Vaqt tejash va jarayonlarni tezlashtirish	Zamonaviy boshqaruv vositalari
Jamoani malakasini oshirish	Doimiy o‘quv dasturlari, treninglar	Ish samaradorligini oshirish	Jamoani malakasini oshirish
Tashkiliy jarayonlarni standartlashtirish	Jarayonlarni optimallashtirish va hujjatlashtirish	Ish jarayonlari aniqligi va boshqaruvning yaxshilanishi	Tashkiliy jarayonlarni standartlashtirish
Motivatsiya tizimini rivojlantirish	KPI asosida rag‘batlantirish, vaqtning boshqarish uchun bonus tizimi	Xodimlarning ishga qiziqishi va samaradorligi oshadi	Motivatsiya tizimini rivojlantirish

²KPI (Key Performance Indicator) - bu xodim yoki tashkilot faoliyatining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichidir. Maqsadga erishish darajasini baholash uchun ishlatiladi.

³OKR (Objectives and Key Results) - bu maqsadlar va ularning natijalarini aniq ko‘rsatkichlar orqali belgilovchi boshqaruv usuli bo‘lib, kompaniya va xodimlar strategik maqsadlariga mos faoliyat olib borishini ta‘minlaydi.



To'rtinchi jadvalda IT Parklar va startaplardagi vaqtni boshqarishga ta'sir qiluvchi muhim omillar tahlil qilingan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy muammolardan biri — raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning yetishmasligidir. Bu holat vaqtni optimal taqsimlashga to'sqinlik qiladi va ish jarayonlarini sekinlashtiradi. Shuningdek, startaplarda rejalashtirish ko'nikmalarining sustligi, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining (Agile, Scrum) to'liq joriy qilinmaganligi, hamda vaqtga nisbatan mas'uliyat madaniyatining pastligi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlildan ayonki, vaqtni boshqarishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim: texnologik infratuzilmani yaxshilash, vaqtni boshqarish bo'yicha treninglarni yo'lga qo'yish, zamonaviy metodologiyalarni to'liq joriy qilish va KPI asosida monitoring tizimini rivojlantirish. Xulosa qilib aytganda, vaqtni samarali boshqarish IT startaplar va Parklar faoliyatida nafaqat ichki tartibni yaxshilaydi, balki umumiy raqobatbardoshlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston IT Parklari va startaplari faoliyati yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, vaqtni boshqarish bo'yicha samarali strategiyalar yetarlicha shakllanmagan, mavjud yondashuvlar esa ko'pincha tizimli emas va zamonaviy metodologiyalarga asoslanmagan. Ko'pgina mahalliy startaplardagi asosiy muammo — rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash va ish jarayonlarini vaqt jihatidan samarali tashkil etishdagi sustkashlikdir.

Xalqaro tajriba, xususan AQSh, Estoniya, Isroil va Janubiy Koreya kabi texnologik jihatdan ilg'or mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, vaqtni boshqarish samaradorligi — startaplarning muvaffaqiyati, tez rivojlanishi va investorlar ishonchini qozonishida muhim omil hisoblanadi. Bunday davlatlarda Agile, Scrum, Kanban kabi yondashuvlar nafaqat ishlab chiqish jarayonlarida, balki umumiy boshqaruv strukturasida ham chuqur integratsiya qilingan.



O'zbekistonda bu metodologiyalarni joriy etish davom etayotgan bo'lsa-da, ularning to'liq va sifatli amaliyotga tadbqiq qilinmasligi vaqtning samarasiz sarflanishiga, resurslar yo'qotilishiga va loyiha muddatlarining cho'zilishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, vaqtni boshqarishga oid madaniyat, raqamli monitoring tizimlari va KPilar asosidagi baholash mexanizmlarining yetishmasligi bu sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Takliflar:

1. Zamonaviy metodologiyalarni keng joriy qilish: IT Park va startaplarda **Agile, Scrum, Kanban** kabi tezkor yondashuvlarni tizimli o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali vaqtni samarali boshqarish imkoni yaratiladi.

2. Time Management treninglarini tashkil etish: Startaplar va IT mutaxassislari uchun vaqtni rejalashtirish, ustuvor vazifalarni ajratish va "deadline"larga rioya qilishga qaratilgan amaliy seminar va treninglar tashkil etilishi kerak.

3. Raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish: **Trello, Jira, Asana, Notion** kabi zamonaviy loyiha boshqaruvi va vaqt monitoringi platformalarini keng joriy etish orqali ish jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi oshiriladi.

4. Vaqt samaradorligini baholash tizimlarini ishlab chiqish: Startaplarda KPI va OKR (Objectives and Key Results) asosida har bir xodim va loyiha bo'yicha vaqt unumdorligini tahlil qilish tizimi joriy etilishi zarur.

5. Vaqt madaniyatini shakllantirish: Kompaniya ichki muhitida vaqtga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, kechikishlar, samarasiz yig'ilishlar va rejasiz harakatlarning oldini olish siyosatini kuchaytirish kerak.

6. Xalqaro tajribani lokalizatsiya qilish: Janubiy Koreya, AQSh va Yevropa IT markazlarida qo'llanilayotgan vaqtni boshqarish yondashuvlarini O'zbekiston IT ekotizimiga moslashtirib joriy qilish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

7. Startaplar uchun vaqt menejmenti bo'yicha metodik qo'llanmalar va standartlar yaratish: Bu qo'llanmalar yirik kompaniyalar emas, aynan kichik IT jamoalar ehtiyojiga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Schwaber, K., & Sutherland, J. (2017). The Scrum Guide. Scrum.org. – T. 2. – №. 2. – C. 63-72.
2. Anderson D. J. Kanban: successful evolutionary change for your technology business. – Blue hole press, 2010.– T. 49. – C. 79-91
3. Rasulov, S. (2021). O'zbekiston IT ekotizimida vaqtni boshqarishning muammolari va yechimlari. Toshkent: IT Universiteti nashri.
4. Abdullaev, M., & boshqalar (2022). Startaplarda vaqtni boshqarish va samaradorlikni oshirish. "Texnologik Innovatsiyalar" jurnali, 5(2), 45-53.